

“SEZAR” ONOMASI TARIXIDAN

Hayotov Feruz

Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va Yuridik fakulteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixda keng qo'llaniladigan mashhur terminlardan biri “Sezar” atamasiga ta'rif beriladi va uning tarixi ifodalab beriladi. Shuningdek, davrlararo atamaning ma'nosi va shakldosh so'zlari haqida ham so'z yuritiladi. Mazkur termin hozirgi davrga qadar o'z ma'nosini saqlagan va buyuklik ramzidan dalolat beruvchi so'zlar sirasida foydalanib kelinadi.

Abstract: In this article, one of the famous terms widely used in history, "Caesar" is defined and its history is presented. Also, the meaning of the inter-period term and related words are discussed. This term is used in the series of words that have preserved their meaning until the present time and indicate the symbol of greatness.

Kalit so'zlar: Sezar, Gay Yuliy Sezar, Rim, diktator, konsul, “Gall urushlari xotiralari”, “Fuqarolar urushi kundaligi”, Oktavian, “sezar” va “avgust”, Neron, “Caesar”, “sesar”, “chezare”, “kayzer”, “sar”, “qaysar”, Ivan Grozniy, Pyotr I, Konstantinopol, Sargrad, “chor”, G'afur G'ulom, Prussiya, Muqaddas Rim imperiyasi.

Keywords: Caesar, Gaius Julius Caesar, Rome, Dictator, Consul, Memoirs of the Gallic Wars, Civil War Diary, Octavian, "Caesar" and "Augustus", Nero, "Caesar", "Caesar", "caesare", "kaiser", "sar", "kaiser", Ivan Grozny, Peter I, Constantinople, Sargrad, "chor", Gafur Ghulam, Prussia, Holy Roman Empire.

Tarixda, siyosiy bilimlar va kundalik hayotimizda uchraydigan shunday atamalar borki, ularning hatto qayerdan kelib chiqqanligi, qanday ma'no anglatishi haqida ba'zan to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini anglay olmasligimiz ham mumkin. Barchamizga ma'lumki, tarixiy-siyosiy atamalar shunchaki qo'llaniladigan so'zlar emas. Shuningdek ular asrdan asrga o'tib bizgacha yetib kelar ekan har doim ham o'z holicha uchramaydi. Zamonlar osha turli xalqlar tili va talaffuzida tuvush o'zgarishlari sodir bo'lib, ularni shakli o'zgaradi va hattoki, ba'zan ma'nosi ham o'zgarishi ehtimoli bor.

Biz hozirda o'rganadigan mashhur terminlardan biri bu “Sezar” onomasidir. Xo'sh, bu atama qayerdan kelib chiqqan? Albatta, biz tarixchilar tanigan mashhur sarkarda, Rim Respublikasi diktatori, buyuk davlat arbobi hisoblangan Gay Yuliy Sezar ko'z oldimizda gavdalanadi.

Gay Yuliy Sezar (Gaius Julius Caesar, miloddan avvalgi 102-44 yy) buyuk Rim diktatori (mil. avv. 49, 48-46, 45 – yillarda va 44-yildan umrbod Rim diktatori). O'zining ilk siyosiy faoliyatini demokratik guruh tarafdori sifatida boshlagan. Mil. avv. 73-yilda harbiy tribun, mil. avv. 65-yilda edil, mil. avv. 62-yil pretor lavozimlarida

faoliyat yuritgan. Konsullikka erishib, mashhur sarkardalar Gney Pompey va Mark Krass bilan ittifoq tuzadi (1-triumviat). Mil. avv. 59-yil Konsul sifatida faoliyatini boshlab, keyinchalik Galliya provinsiyasi noibi sifatida davom ettiradi. Mil. avv. 58-51 yillarda butun Alp-orti Galliyasini Rimga bo'ysundirgan va shu bilan rimliklar orasida shuhrat qozongan. Mil. avv. 49-yilda armiyaning qudratiga tayanib yakkahokimlikka erishgan. Pompey va uning tarafdorlari ustidan g'alaba qozongach (Krass bu paytda Parfiya bilan urushda halok bo'lgan edi), davlat boshqaruv ishini to'laligicha o'z qo'liga oladi. Davlatning asosiy lavomizlari va konsul va diktator lavozimlarini egallab turib, yagona monarx darajasiga erishgan. Fitna oqibatida mil. avv. 44-yilda halok bo'lgan. Gay Yuliy Sezar "Gall urushlari haqida xotiralar" va "Fuqarolar urushi kundaligi" asarlarining muallifi va shuningdek "Yulian kalendari" tuzilishida bosh-qosh bo'lgan¹.

Bundan ko'rinib turibdiki, Sezar Rim tarixi uchun ahamiyatli bo'lgan buyuk shaxslardan hisoblanadi. Rimning gullab-yashnagan davrlari hamda buyuklik maqomiga erishishiga sababchi bo'lar ekan, albatta, uning nomi butun mamlakat bo'ylab buyuklik ramzi sifatida jaranglab turgan.

Ammo, ushbu masalani o'rganib, Sezar nomi faqat Gay Yuliyga xos desak xato bo'ladi. Chunki, ushbu nom hali Gay Yuliydan ham oldinroq Rimda qo'llanilgan an'anaviy ismlardan biridir. "Sezar" atamasi dastlab qadimgi Rimda shaxsga qo'yilgan laqab sifatida ham foydalanilgan. Ushbu nom erkaklarga xos ism bo'lib, lotinchadan tarjima qilinganda "momiq sochli" degan ma'noni anglatadi. Atama italyanchada "Chezare", "fransuzcha "Sezar", ispancha "Sesar", nemischa "Kayzer", ruscha "Sar" ("Царь") va "Kesar" ("Кесарь") shakllariga ega bo'lib, muomalada yuritilib kelingan². Bu holat esa Sezar nomining naqadar continental tarqalganligining guvohi bo'lamiz.

Shuningdek, Sezar nomidan Qadimgi Rim imperatorlari foydalanishgan³. Ushbu nom har bir imperatorning naqadar buyukligini ifodalagan. Jumladan, mil. avv. 44-yilda vafot etgan Gay Yuliyning jiyani Gay Oktaviy Furin uning vasiyatiga ko'ra diktatorlik maqomiga ega bo'lgan. O'zining dastlabki g'alabasiga erishgan Oktaviy Furin o'z nomiga ikki ulug' maqomni qo'shgan, ya'ni, uning to'liq nomi Gay Yuliy Sezar Oktavian Avgust nomi bilan shuhrat qozongan. Shundan so'ng, ushbu ikki maqom, ya'ni "sezar" va "avgust" keyingi Rim imperatorlari nomlariga qo'shib aytila boshlangan. Shu jumladan, Yuliy Sezar va Oktavian Avgustning qarindoshi hisoblangan Neron ham ushbu ikki unvonni o'z nomiga qo'shib qabul qilgan⁴.

¹ Большой энциклопедический словарь. Том 2. -Москва.: "Советская энциклопедия". 1991. -С. 612, Ravshan Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi. -Т.: 2009. -В. 380-382.

²[https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A6%D0%B5%D0%B7%D0%B0%D1%80%D1%8C_\(%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D1%87%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A6%D0%B5%D0%B7%D0%B0%D1%80%D1%8C_(%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D1%87%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F))

³ Большой энциклопедический словарь. Том 2. -Москва.: "Советская энциклопедия". 1991. -С. 612.

⁴ [https://en.wikipedia.org/wiki/Caesar_\(title\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Caesar_(title))

Sezar nomi Rim hukmdorlari uchun faxr va iftixor sanalgan. Shu uchun har bir imperator ushu nomga sazovor bo'lish uchun Sezar shaxsiga o'xshashga uringan, harbiy yurishlarda zafar orqali ushbu unvonni qozonish uchun kurashishgan.

Ushbu davrda nafaqat Rimning Yevropadagi provinsiyalarida ushbu nom keng qo'llanilgan, balki, sharqda ham keng qo'llanilgan bo'lib, uning turli xil talqinlari mavjud bo'lgan. Masalan, Rimga tobe bo'lgan yahudiylar uni "Kisr" deb atashgan. Keyinchalik, arab va eroniy xalqlar orasida Sezarning sharqona nomlanishining "Qaysar" ko'rinishi paydo bo'lgan.

Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan "Qaysar" terminologiyasi o'zbek adabiyoti namunalari ham yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, taniqli o'zbek adibi G'afur G'ulomning she'riyatida ham ushbu misralarni uchratish mumkin: "Jahonning fotihi Iskandar, Rum Qaysari, qonxo'r Chingiz"⁵ va o'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblanmish "Rustamxon" dostonida uchratish mumkin: "qoplon yuraging, Qaysar sifat bolam, qaydin bo'lasan?"⁶.

Sharq xalqlaridan tashqarida ushbu kelib chiqishi lotincha terminni slavyan xalqlari ham o'zlashtirishgan. Ayniqsa, bu nomlanish ruslar, bolgarlar va serblar orasida keng qo'llanilib kelingan. Slavyan tilida ushbu terminni ma'nosi o'zgarib, ushbu so'z o'zagidan yangi so'z – "hukmronlik qilish" ("царить") ma'noli so'z paydo bo'ldi. "Sezar" rus xalqi orasida qo'llanilish jarayonida shakli ham o'zgargan bo'lib, u "sar" ("царь") sifatida qo'llanilgan. Ammo eng asosiysi, ushbu nomlanish Sezar shaxsiga bo'lgan taqlidchanlikni yo'qotgani yo'q edi.

1547-1721 yillar oralig'ida podsholik unvoni sifatida rasman muomalada bo'lib, dastlabki ushbu titulni qabul qilgan dastlabki shaxs bu Ivan Grozniy bo'lgan. Pyotr I davriga kelib ushbu titul muomaladan chiqarilib, hukmdorlar "imperator" deya talqin qilina boshlangan. Ammo, "царь" tituli to'la yo'q bo'lib ketmagan, balki, mahalliy xalq orasida hukmdor so'zini anglatuvchi noformal shakl bo'lib hisoblangan. Bu jarayon 1917-yil Rossiya imperiyasi tugatilgan davrgacha momalada bo'lgan⁷.

Ushbu holatni o'rganar ekanmiz, savol tug'ilishi tabiiy. Nima sababdan rus xalqida ham bu unvon hukmdorlar orasida ham mavjud bo'lgan va buning sababi nimada bo'lgan? Ma'lumki, Vizantiya imperiyasi Rus yerlari bilan bir vaqtlar chegaradosh hudud hisoblangan, ularni quruqlik va dengiz chegaralab turgan. Vizantiya imperiyasida garchi hukmdorlar grekcha "vasilevs" ya'ni "podsho" deb nomlangan bo'lsada, Sezarning nomidan voz kechilmagan. Ular "kesar" atamasini o'z podsholariga nisbatan qo'llashgan. O'rta asrlarda ruslarning vaziyatdan foydalanib, Vizantiya imperiyasiga uyushtirgan, asosiy maqsadi qaroqchilik va talonchilik bo'lgan urushlari sodir bo'lgan. Rimning ikkinchi poytaxti hisoblanmish Konstantinopolga rus

⁵ Qurambayev K. Adabiyotshunoslik asoslari. Ma'ruzalar matni. -Nukus.: 2011. -B. 55.

⁶ <https://uz.wiktionary.org/wiki/qaysar>

⁷ Большой энциклопедический словарь. Том 2. -Москва.: "Советская энциклопедия". 1991. -С. 610.

xalqining hujumi uyushtiriladi. 860-yil 18-iyunda bo'lib o'tgan ushbu jangda garchi rus qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, chekingan bo'lsa ham, Rusiya podsholari o'zlarini ushbu holatdan keyin Rim imperiyasining vorislari deb hisoblashgan. Konstantinopol esa shartli ravishda ular tomonidan "Sargrad" ("Царьград") ya'ni "Sezar shahri" degan nomni olgan.

"Царь" so'zi esa O'rta Osiyo bosqini jarayonida mahaliy aholi tomonidan "chor" shaklida talqin qilingan.

"Sezar" kogloimenini qo'llash nafaqat Yevropa kontinentidagi Rim imperiyasida, balki, ruslar kabi o'zlarini Rim imperiyasi vorislari deb sanab kelishgan nemis xalqi hukmdorlari, jumladan, Muqaddas Rim imperiyasi imperatorlari nomlariga qo'shib aytilgan. Bu onoma nemis tilida "kayzer" shaklida mavjud bo'lgan.

"Kayzer" (nemischa – "Kaiser") Muqaddas Rim imperiyasi (962-1806) va Germaniya imperiyasi (1871-1918) imperatorlarining tituli hisoblangan⁸.

Hozirgi kunda ham ushbu onoma o'g'il bolalar ismlari sifatida, shuningdek, kinematografiya hamda adabiy asarlarda ushbu shaxs obrazi keng qo'llaniladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Большой энциклопедический словарь. Том 1. -Москва.: "Советская энциклопедия". 1991.
2. Большой энциклопедический словарь. Том 2. -Москва.: "Советская энциклопедия". 1991.
3. Ravshan Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi. -T.: 2009.
4. Qurambayev K. Adabiyotshunoslik asoslari. Ma'ruzalar matni. -Nukus.: 2011.
5. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A6%D0%B5%D0%B7%D0%B0%D1%80%D1%8C_\(%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D1%87%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A6%D0%B5%D0%B7%D0%B0%D1%80%D1%8C_(%D0%B7%D0%BD%D0%B0%D1%87%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F))
6. [https://en.wikipedia.org/wiki/Caesar_\(title\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Caesar_(title))
7. <https://uz.wiktionary.org/wiki/qaysar>

⁸ Большой энциклопедический словарь. Том 1. -Москва.: "Советская энциклопедия". 1991. -С. 524.